

## ISLOM DINIDA ZIYORAT MASALALARIGA BO'LGAN MUNOSABAT

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi 2-kurs Qiyosiy dinshunoslik mutaxassisligi magistranti Xotamxonov Muhammadjon*

Tarix adabiyotlariga nazar tashlansa, tadqiqotchilar turizm paydo bo'lishini miloddan avvalgi davr bilan bog'lashadi. Pul ixtiro qilinishi bilan savdo yangi bosqichga ko'tarilganligi sayohat tushunchasi nuqtai nazaridan yangi davrni ochishga imkon berdi. Pul kabi ayrboshlash vositasining rivojlanishi mavjud savdo harakatlarini sezilarli darajada oshiradigan ixtiro edi. Ushbu davrda sayohat qilishning eng muhim sababi bo'lgan savdo bilan bog'liq o'zgarishlar sayohatga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

Tarixdan musulmon sayohatchilar turli joylarga sayohatlar uysushtirar, o'z bilimlari va tajribalarini boshqalar bilan baham ko'rishar edi. Darhaqiqat, ba'zi musulmon sayohatchilar, arxeologlar singari, ko'plab qadimiy davlatlar va shaharlarni yevropaliklardan ancha oldin aylanib chiqib, hududlar haqida batafsil bayon etilgan tadqiqotlarni olib borishgan. Ushbu sayohatchilarning ba'zilari sayohatnomalar tayyorladilar, ba'zilari esa xaritalarni chizdilar.

Islom tarixining birinchi davrlaridan boshlab musulmon shaxslarning sayohatlardagi faol ishtiroki, islom dinida sayohat to'g'risida ijobjiy fikr borligini ko'rsatadi. Islom falsafasida Alloh yaratgan narsalarning boyligi va go'zalligini ko'rish orqali uning ulug'verligini anglash mumkin deb hisoblanadi. Shu bilan birga, sayohat qilish va sayyohlik tadbirlarida qatnashish odamlarga o'zlarini yaxshi his qilishiga, stressdan xalos bo'lishiga va shu bilan yaxshiroq xizmat qilishiga (faoliyat yuritishlariga) imkon beradi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Захра Моавен. "Spiritual Health through Pilgrimage Therapy:A Qualitative Study" – *Health, Spirituality and Medical Ethics.*, 2017.-35 6.

Islom dinida turizm Allohnинг roziligi yo‘lida jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan sog‘lom bo‘lish uchun qilinadigan harakatdir. Shuningdek, diniy manbalarda sayohatni qanday maqsadlarda amalga oshirilishi haqida ko‘plab foydali maslahatlar borligini o‘rganishimiz mumkin.

Jumladan, Alloh taolo Qur’oni karimning “Ankabut” surasi, 20-oyatida shunday marhamat qiladi: Sen: **“Yer yuzida sayr etib yuringlar va maxluqotlarni U zot avval boshdan qanday yaratganiga nazar solinglar. So‘ngra Alloh oxirat hayotini paydo qilur. Albatta, Alloh har bir narsaga qodir zot”**, deb ayt. (*Ankabut, 20*)

Ushbu oyatda ta’kidlanganidek, sayr qilish inson uchun ko‘p manfaatlar keltiradi. Sayohat qilish davomida inson yer yuzidagi ajoyibotlardan bahramand bo‘lishi aytilmoqda. Shuningdek, inson o‘zi yashab turgan manzildan boshqa joyga sayohat qilsa, atrofni ko‘rib ibrat oladi, zehni charxlanadi hamda yangilanadi.

Shuning bilan birga, hadislarda ham ziyyaratga, qabr ziyyaratlariga targ‘ib qiladigan eng mashhur va sahih bo‘lgan hadisi shariflar mavjuddir. Ularda qabr ziyyaratining xosiyati haqida shunday deyiladi: **“Men sizlarni qabrlar ziyyaratidan qaytargan edim. Endi, ularni ziyyarat qilaveringlar! Chunki, u oxiratni eslatadi, sizlarga o‘limni esga soladi. Ey, ziyyarat qilaveringlar. Chunki, u qalbni yumshatadi, ko‘zni yoshlantiradi. Chunki, sizlarga unda ibrat bor. U dunyoda parhezkor qilib qo‘yadi”** (*Muslim, Termiziy, Abu Dovud, Ibn Moja, Hokim, Tabaroniy rivoyatlari*).

Bu kabi hadislар va ulug‘larning aytgan gaplarini ko‘plab misol qilib keltirishimiz mumkin. Imom an-Nasoiy rahimahulloh rivoyat qilishlaricha, qabrlar ziyyaratining fazilati sifatida: **“Ularning ziyyorati sizlarga yaxshilikni ziyoda qiladi”**, deyilgan.<sup>2</sup> Haqiqatan, ulug‘lar va mashhur ulamolarning, o‘tganlarning qabrlarini ziyyarat qilish insonga oxiratni eslatishi bilan birga, bu dunyodagi qiyinchiliklar va har xil muammolar o‘tkinchi ekanligini ko‘rsatib, qalbni xotirjam va sokin qiladi.

<sup>2</sup> Зайнiddин Эшонқулов. “Зиёрат одоблари” – Т.: Мовароуннахр, 2015.- 12 б.

Islom dinida musulmonlarga o‘zlarini takomillashtiradigan har qanday ishlarda qatnashish tavsiya qilinadi. Islom dini musulmonlarni foydali yo‘llar bilan rivojlanib, tinch-totuv yashashga undaydigan din.

Jahon sayyohlik tashkiloti (JST) tomonidan muntazam ravishda nashr etilayotgan “**Turizmning muhim voqealari**” nashrining 2013 yilgi sonida keltirilgan statistik ma’lumotlarga ko‘ra 2012 yilda butun dunyo bo‘ylab sayyohlik faoliyatida ishtirok etayotgan odamlarning 27% “ziyorat turizmi, sog‘liqni saqlash turizmi va qarindosh-do‘stlarni ziyorat qilish» ishtiyoqi bilan harakat qilgan.<sup>3</sup> Shunga ko‘ra, dunyo bo‘ylab 300 millionga yaqin odam “Ziyorat turizmi, sog‘liqni saqlash turizmi va qarindosh-do‘stlarni ziyorat qilish” kabi motivlar bilan sayohat qilishgan. Yuqorida sanalgan uch turistik turtki ham islom dinining buyruqlari va tavsiyalariga to‘g‘ri keladi.

Islom dinida turizm Allohnning roziligini olish hamda jismoniy, ijtimoiy va psixologik jihatdan sog‘lom bo‘lish uchun qilingan harakatdir. Shuningdek, sayohatning afzalliklari to‘g‘risida ko‘plab masalalarga ishora qilinganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan, sayohat shaxslarda zo‘riqishni kamaytiradi. Unga turli xil aqliy, jismoniy va ma’naviy muammolarni tinglash va undan xalos bo‘lishga yordam beradi. Shunday qilib, islomda sayohat tushunchasi maqsadga muvofiq harakatdir. Stressdan xalos bo‘lish, jismoniy dam olish, sog‘lom bo‘lish, ta’lim va tarbiya kabi shaxsiy rivojlanish sayohatning asosiy maqsadlari qatorida turadi. Ziyorat turizmida sayyoohlар bir tomondan Allohnning roziligini olish va o‘zlarining individual dam olish faoliyatini bajarish uchun sayohat qilishadi.

Tarixiy joylarga sayohat qilish ko‘p jihatdan yaxshi. Avvalo, bu bizning tarix haqidagi bilimlarimizni yanada yaxshilaydi. Qadimiy obidalar bizga ilgari sodir bo‘lgan tarixni tushinishga yordam berib, o‘sha davrda yashagan va turli urf-odatlarga ega bo‘lgan jamiyatga nisbatan hurmatni kuchaytiradi. Tarixiy joylarni ziyorat qilish bu shunchaki sayohat va tashrif emas, balki yangi narsalarni qashf qilish va o‘rganish

<sup>3</sup> Ömer Akgün Tekin. “İslami Turizm: Dünya'daki ve Türkiye'deki Genel Durum Üzerine Bir İnceleme”. –The Journal of International Social Research, 2014. - 762 6.

hamdir. Odamlarda turli hil tarixiy joylarni ziyorat qilishga ta'sir qiluvchi asosiy sabablardan biri sifatida **shaxsiy qoniqish, bilimlarini oshirish va ruhiy quvvat ekanligini ta'kidlash lozim.**<sup>4</sup> Misol uchun, sayohatchilar o'zлari o'qigan va eshitgan tarixiy joylarni yaqindan ko'rgisi va o'tmishga qaytib, tarixiy jarayonlarni o'zлari boshlaridan kechirishni xohlashadi va bu ular uchun yangi bilimlarni egallash kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Tarixda yashab o'tgan ota-bobolarimiz bilimli va turli sohalarda olamshumul kashfiyotlarni amalga oshirgan. Bugungi kunda biz ko'rib turgan tarixiy yodgorliklar hozirgi kunga o'hhash texnik uskunalar bo'lмаган zamonda qurilganligi va shunga qaramay hozirgacha ushbu obidalar o'zining savlati va hashamatliligi bilan dunyo sayyoohlarini lol qoldirib kelayotganligi bolalar va yosh avlod uchun ilhom baxsh etadi. Ta'limga aylanadigan bunday madaniy meroslarga uyushtirilgan sayohatlardan bolalar ko'p narsalarni o'rganishlari mumkin.

Madaniy meroslar va tarixiy obidalar jamiyatda quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

- Ijtimoiy kapitalni shakllantirishga yordam beradi;
- Mahalliy urf-odatlar va madaniyatni saqlashda muhim rol o'ynaydi;
- Ijobiy xulq-atvorni targ'ib qiladi;
- Jamiyat imidji va g'ururini yaxshilaydi;
- Jamiyatni obodonlashtirishga yordam beradi.

Mamlakatning tarixiy va madaniy meros salohiyati ziyorat turizmi rivojlanishining asosiy omillaridan biri ekanligi ahamiyatlidir. Chunki, tarixiy va madaniy meroslar bilan tanishish eng kuchli turistik turtki bo'lib, ko'plab touristlar jalb qilishning muhim vositasi hisoblanadi. Undan tashqari, madaniy va tarixiy meros obektlar foyda keltiradigan va iqtisodiy rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan zamonaviy shaharlarning muhim boyligi ekanligini unutmaslik lozim.

<sup>4</sup> Бона Ким. "The effect of religious tourism experiences on personal values" – International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage, 2019.- 86 б.